

## ABDULLA ORIPOV TO'RTLILIKLARIDAGI FALSAFIY MA'NOLAR

*Farxodjonov Zafarbek G'ulomjon o'g'li*

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda o'zbek adabiyoti rivojiga sezilarli hissa qo'shgan ijodkorlarga bag'ishlangan zamondoshlar xotiralarini yozish an'anaga aylanib bormoqda. Bu hol bejiz emas. Xotiralar birinchidan, o'tganlarni qadrlash, chuqur ehtirom ramzi bo'lsa, ikkinchidan, ijodkor shaxsiyati, ma'naviy olami, ayrim asarlarining yaratilish tarixi, yangi merosining qirralari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi, kitobxonning mavjud tushunchalarini yanada kengaytiradi. Ushbu maqolada, Abdulla Oripov to'rtliklaridagi falsafiy ma'nolar haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** *Abdulla Oripov to'rtliklari, falsafiy, ma'no, ijodkor, she'rlari, tahlil.*

Eng muhimi esa bu jarayonlar markazida inson taqdirining turishidir. Bu xususiyat "Bahor", "Buloq", "Bulut", "Nay" she'rlari mazmunida in'ikos topadi. Muhimi shundaki, tabiat mavzusi, she'rlaridagi badiiy vositalar, uslub an'anaviy bo'lsa ham, ulargacha yondashuv, talqin, ma'no betakror, shoirning o'zinikidir. Bu hol maqolada she'rlar tahlili va shoir mahorati aspektida yoritiladi. Haqli ravishda ta'kidlanganidek, bu turkum she'rlar tarovati shoirning "o'z ilhomini xushfe'llikda tabiat bilan mushtarak bo'lishini orzu qilib, shaloladek bo'lsa she'rlarim" degan ilk ijodiga xos so'zlarning ifodasi sifatida yangraydi. "Bahor" she'ri haqidagi muxtasar, lekin ohorli fikr yorqin aks etadi. Chunonchi shoir:

*Ayon bir xislating bordir azaldan*

*Seni atamishlar uyg'onish fasli,*

degan ma'lum tushunchaning yangi qirralarini ochar ekan, bu hol "she'r bahorning o'ziga xos qomusi" deya kutilmagan ta'rif bilan xolis baholanadi.

G'oyaviy-badiiy mundarijasidagi betakrorlik ishonarli, ta'sirli ifodalangan: "Bahor shu qadar mo'jizakorki, esayotgan shaboda, ochilayotgan g'uncha, oqayotgan jilg'alar jozibasidan hatto motamzada ko'ngil ham keragicha taskin topa oladi". Lekin bu fazilatlar inson hayoti bilan bog'liq bo'lgandagina ahamiyat kasb etishidan ilhomlangan shogird ustozga fikrdosh sifatida ko'klam ba'zan kechiksa ham qalbi unga oshufta ekanini falsafiy "men" orqali o'zining bir baytida davom ettiradi:

*Yo'q, o'zim ketaman bahor tomonga,*

*Bahor ham o'zini bir ko'rib qo'ysin.*

She'rlarda tabiat unsurlari, hodisalari bilan shaxsning taqdiridoshligi tuyg'ulari teran, falsafiy obrazlilik yo'sinida ta'sirli zuhurlashganiga alohida urg'u berilgan. Darhaqiqat, sarlavhaga chiqarilgan "bahor", "buloq", "shamol", "bulut", "nay" muhim ijtimoiy-badiiy yuk yuklangan, ular estetik kontekstda tasvirlangani sababli vosita

hamda tafsil (yordamchi obraz) vazifasini o'taydi. Shu bois tabiat, jamiyat, real hayot mutanosibligini saqlashga da'vat etar ekan, Matnazar Abdulhakim shoirning "buloqning ham, bulutning ham o'z holiga qo'yib berishni odamlardan o'tinib so'rashini" va yana inson fenomeni o'rnini ta'kidlab, quyidagi to'rtligini keltiradi.

*Qutlug' bir saharda ko'z ochdi buloq,*

*Yo'l oldi daryolar sari adashib.*

*Unga rahm etmoqchi odamlar shu choq*

*Tog'u toshlar aro yangi yo'l ochib.*

Abdulla Oripovning so'z qo'llashi, falsafiy ma'no nozikliklaridan mohirona foydalanish salohiyati tahsinga loyiq jihatlardan biri sifatida sharhlanadi. Bu o'rinda so'zga xos poetik ko'chirim, ma'nodoshlik, falsafiy, majoziylikka doir qator misollar keltiriladi. Haqiqatdan ham e'tirof etilganidek, "Qaysidir yurtning eslab ingrayotgan nay" – majozan sog'inch nolasi, "shamol" – ko'zga ko'rinmaydigan sirli tog'larning go'zal arvohi ramzi, "Qish bo'yi tuproqqa ko'milib, yerdan kovlab olingan va quyoshga zor tokzorlar" – qatag'onlar timsoli. Bularni ohorli individual topilmalar deyish mumkin. Shuningdek, shoirning bir baytning o'zida bir nechta tasvir vositalarini qo'llashdagi o'ziga xosligi ham maqolanavis diqqatini tortadi. Bunga dalil bo'lib sifatlash, o'xshatish, jonlantirish badiiy unsurlari ishtirok etgan:

*Uvada kamzulda billur tugmaday*

*bulutlar ortidan boqadi yulduz,*

misralarini tahlilga tortib, shogird shunday yozadi: "Bunda umumboqiy sayyoralar bilan o'tkinchi bulutlarning bitta tafakkur nuqtasiga jamlanishi o'quvchini hayratlantiradi". Bu hayrat tufayli, shogird fikricha, Abdulla Oripov qalami sukunatdan guldirosalar yangratadi, ko'zyoshlardan uchqunlar chaqnatadi, mavjlardan alangalar yasaydi.

**Xulosa qilib aytganda,** "bu she'rlarning nafaqat ma'naviy, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari ham o'z dolzarbligini yo'qotmaganiga va yo'qota olmasligiga ishonamiz". Abdulla Oripov she'rlar mohiyatida ustoz shoirning tabiat – inson – hayot konsepsiyasiga, ular orasidagi bardavom munosabatlarga oid qarashlari mujassam. Zero, shoir qalami tabiatning tubsiz ummonlariga teran sho'ng'idi, cheksiz yuksaklarga tikka parvoz qildi, hudud miqyoslarini qamrab ola bildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san'atlar: -Toshkent : 1997. 142bet.
2. Ashurova G. Abdulla Oripov she'riyatida an'ana va badiiy falsafa (obraz, g'oya va tasvir). Toshkent : 2008, 26bet.
3. Begimqulov D. She'riyatimiz yulduzi. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. - Toshkent : 2000.432bet.